

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

"TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI" KAFEDRASI

Hamroyev H.R., Ibragimov N.S., Nurov Z.S.

ILMIY – SEMINAR BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

"TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI" KAFEDRASI

Hamroyev H.R., Ibragimov N.S., Nurov Z.S.

ILMIY – SEMINAR BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMA

5A 610301 – "Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)" magistratura
mutaxassisligi uchun

BUXORO-2021

Buxoro Davlat Universiteti, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasida dotsenti, i.f.n. Hamroyev H.R. i.f.n., dotsent Ibragimov N.S. va Phd, Nurov Z.S. 5A 610301 - "Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)" magistratura mutaxassisliklari uchun "Ilmiy-seminar" bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2021 yil. 12 bet.

Annotation: Uslubiy ko'rsatmada ilmiy seminarni tashkil etish borasida umumiy qoidalar, o'tkazish muddati, mazmuni va tarkibi, uning hisobotini rasmiylashtirish, hamda magistrantning majburiyatlari, seminar hisobotini himoyaga tayyorlash va baholash tartibi, hamda ilovalar ko'rsatilgan.

TAQRIZCHILAR:

Ro'ziyev S.S. - BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasida dotsenti, i.f.d.
Azimov B.F. - BuxMTI, "Menejment" kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Uslubiy ko'rsatma Buxoro Davlat Universiteti O'quv-metodik kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (9-sonli bayonoma, 4-may, 2021 yil).

1. ILMIY SEMINARNI O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ilmiy seminarning maqsadi: Ilmiy tadqiqot ishlarini amaliy ahamiyatini yoritishda tanlangan ob'ektning nazariyalari, amaliyoti va jahon tajribasi bo'yicha magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar o'rtasida muhokama etish, ishlab chiqarish muammolarini aniqlash, uni rivojlantirish yo'llarini shakllantirish va yutuqli natijalarni targ'ib etishdan iborat, bundan tashqari ilmiy kommunikatsiya ko'nikmasini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot ishi natijalarini uning turli bosqichlarida muhokamasini tashkil etish va ilmiy tadqiqot ishlarini sifat darajasini oshirish maqsadida ilmiy seminar tashkil etilgan.

Ilmiy seminarning vazifalari: Ilmiy seminar magistratura talabalarida tadqiqot ishlarini olib borish va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga, magistrantning nazariy-metodologik tayyorganligini chuqurlashtirish va yo'naltirishga, ilmiy-tadqiqot faoliyati texnologiyalarini amaliy egallashlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Ilmiy seminar:

- magistrlik dissertatsiyasi mavzui bo'yicha manbalarni (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy monografiyalar, maqolalar, ma'ruzalar, uslubiy adabiyotlar va h.k.) o'rganish;
- ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- magistrlik dissertatsiyasi mavzui bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish, o'rganish va tahlil qilish;
- magistrlik dissertatsiya mavzusi doirasida amaliy tadqiqotlar va eksperimentlar o'tkazishni o'rganish;
- amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha ma'ruza tayyorlash va ilmiy seminarda ma'ruza qilishni nazarda tutadi.

Ilmiy seminarni o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanilib, tarqatma materiallar tayyorlanadi, yozma ish tizimi asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Magistratura talabasi 1, 2, 3 semestrlarda 240 soat, shu jumladan, 1 semestrdan 80 (auditoriya soatlari 30 va mustaqil dars soatlari 50 soat) soat, 2 semestrdan 80 soat (auditoriya soatlari 30 va mustaqil dars soatlari 50 soat) va 3 semestrdan 80 soat (auditoriya soatlari 30 va mustaqil dars soatlari 50 soat) davomida ilmiy tadqiqot, ilmiy-pedagogik va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash ishlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib boradi.